# Seysmik xavfsizlikni ta’minlash bo’yicha belgilangan vazifalar ijrosiga bag’ishlangan davra suhbati

O’zR FA Seysmologiya institutida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi “O’zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-144-sonli Farmonining Fanlar akademiyasi tizimida ijrosini ta’minlash bo’yicha mas’ullar bilan davra suhbati o’tkazildi.




Unda Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti S.Z.Mirzayev, Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi tuzilmasining Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohasini muvofiqlashtirish sho’basi mudiri D.Bekmirzayev, Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti va Seysmologiya instituti rahbariyati hamda laboratoriya mudirlari ishtirok etdi.

Davra suhbatida ushbu Farmondagi O’zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini 2025-yilgacha takomillashtirish kontsepsiyasida belgilangan vazifalarni 2022 – 2023-yillarda amalga oshirish bo’yicha tasdiqlangan “YO’L XARITASI”ni soha olimlari bilan birgalikda muhokama qilindi va mas’ullarga biriktirildi.